xos yondashuvni talab qiladi. O‘zbek tilida jins grammatik jihatdan ifodalanmaganligi sababli gender ma’nosini kontekstual tarzda yoki qo‘shimcha so‘zlar yordamida yetkazish kerak bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘zbek tilida jinsni aniq ko‘rsatuvchi leksik birliklar mavjud bo‘lib, ular gender differensiatsiyasini ko‘rsatadi. Rus va nemis tillarida esa jins grammatik jihatdan aniq ifodalanadi, bu esa tarjimada jinsiy farqlashni saqlab qolishni talab qiladi. Ingliz tilida jinsiy neytrallik keng tarqalgan bo‘lib, gender stereotiplarini chetlab o‘tishda neytral leksik vositalardan foydalaniladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Tarjima nazariyasida genderga oid tadqiqotlarni kengaytirish. Tarjima jarayonida gender stereotiplari va jinsiy differensiatsiyani to‘g‘ri aks ettirish uchun tarjimonlar lingvistik bilim bilan birga gender masalalari bo‘yicha ham yetarli ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak. Shu sababli tarjima nazariyasi va amaliyotida gender masalalari bo‘yicha maxsus tadqiqotlarni kengaytirish lozim.

Gender neytral tarjima usullarini qo‘llash. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillarida gender neytralligini ta’minlash uchun mos leksik birliklar va grammatik vositalarni ishlatish zarur. Masalan, o‘zbek tilida jinsni aniq ko‘rsatmaslik uchun kasb va lavozim nomlarini neytral tarzda qo‘llash mumkin.

Madaniy kontekstni hisobga olish. Tarjima jarayonida gender stereotiplari va ijtimoiy rollar madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, tarjimon madaniy farqlarni chuqur o‘rganishi va ular asosida tarjima qilishi lozim. Shu orqali gender stereotiplarini o‘zgartirmasdan yoki yangisini yaratmasdan, asl mazmunni to‘g‘ri yetkazish mumkin bo‘ladi.

Tarjimonlar malakasini oshirish. Gender masalalari va madaniyatlararo farqlarni hisobga olgan holda tarjimonlar malakasini oshirish uchun maxsus o‘quv kurslari va seminarlar tashkil etish lozim. Ayniqsa, tarjima yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun gender va madaniyat bo‘yicha chuqur bilimlar berilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, madaniyat, tarjima va gender o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur o‘rganish tarjimada mazmunni to‘g‘ri yetkazish va gender tengligini saqlash imkonini beradi. Tarjimonlar madaniy va gender farqlarni to‘g‘ri baholab, gender stereotiplari va jinsiy differensiatsiyani aniq ifodalash uchun lingvistik va madaniy vositalarni mohirona qo‘llashlari lozim. Shu orqali tarjimada madaniy merosning to‘g‘ri va adolatli aks ettirilishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Salomov G‘.S. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, “Fan”, 1983.
(2). Nida E.A. Linguistics and Ethnology in Translation Problems. The Hague, Mouton, 1964.
(3). Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. New York, Routledge, 1990.
(4). Hofstede G. Cultures and Organizations: Software of the Mind. London, McGraw-Hill, 2010.

Aripova Saodat Taxirovna (Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti o‘qituvchisi, Toshkent, 100074, O‘zbekiston; e-mail: aripova_saodat8822@mail.ru)

HIKOYALAR TARJIMASIDA TARJIMONNING LINGVISTIK HAMDA MADANIY KOMPETENSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy tarjimaning o‘ziga xos jihatlari xususida so‘z yuritiladi. Badiiy asar tarjimasidagi eng muhim jihat bu tarjimonning lingvistik hamda madaniy kompetensiyasi ekanligi olimlar tomonidan ham e’tirof etilganligi muhikama etiladi. Tarjimonning badiiy asar tarjimasida ushbu kompetensiyasidan tashqari, badiiy-estetik jihatlarni to‘g‘ri anglagan holda o‘girishi ham muhim jihat ekanligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *hikoya tarjimasi, kompetentlik, lingvistik va madaniy kompetensiya, estetik jihat.*

Арипова Саодат Тахировна (преподаватель Университета точных и социальных наук, Ташкент 100074, Узбекистан; e-mail: aripova_saodat8822@mail.ru)

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ ПЕРЕВОДЧИКА ПРИ ПЕРЕВОДЕ РАССКАЗОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются специфические аспекты художественного перевода. Утверждается, что ученые также признают важнейшим аспектом литературного перевода языковую и культурную компетентность переводчика. Подчеркивается, что помимо этой компетенции переводчику важно также осуществлять перевод литературного произведения с правильным пониманием художественно-эстетических аспектов.*

Ключевые слова: *перевод рассказа, компетентность, лингвистическая и культурная компетентность, эстетический аспект.*

Aripova Saodat Takhirovna (Lecturer, University of Exact and Social Sciences, Tashkent 100074, Uzbekistan; e-mail: aripova_saodat8822@mail.ru)

LINGUISTIC AND CULTURAL COMPETENCE OF THE TRANSLATOR IN TRANSLATING STORIES

Annotation. *The article examines specific aspects of literary translation. It is argued that scholars also recognize that the most important aspect of literary translation is the linguistic and cultural competence of the translator. It is emphasized that in addition to this competence, it is also important for the translator to translate a literary work with a correct understanding of the literary aesthetic aspects.*

Keywords: *translation of a story, competence, linguistic and cultural competence, aesthetic aspect.*

Kirish. Badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida o‘sha xalq tilida tasvirlangan madaniyat, xalq shaxsiyati, turmush tarzi, xulq-atvori, tafakkuri, tevarak-atrofdan xabardorlik kabi milliy-madaniy jihatlarni ko‘rsatish “tarjimasiz” til birliklari bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tilshunoslikda ham, tarjimashunoslikda ham tillarning milliy-madaniy xususiyatlari, dunyoning lingvistik manzarasi va lingvistik-madaniy xususiyatlar bilan bog‘liq lingvistik masalalar asosiy e’tiborda bo‘lishi lozim. So‘nggi paytlarda tarjimonlar bu masalaga ustuvor ahamiyat berib, madaniyat va madaniyatlararo muloqot tarjima, ayniqsa, badiiy tarjimaning muhim vositasi ekanligini ta’kidlamoqda.

Bundan tashqari, tarjimada madaniy omillarni ta’minlash usullari, madaniy ma’lumotni yo‘q qilish yoki tarjima jarayonida uni saqlab qolishning kommunikativ-pragmatik moslashuvi imkoniyatlari, tarjima matnida madaniy komponentni yetkazish usullari va asosiy tarjima strategiyalarini ko‘rib chiqish juda muhimdir. Tarjima matni yoki badiiy asardagi milliy madaniyat ifodalari tarjimashunoslikning eng murakkab va kam o‘rganilgan sohasi hisoblanadi. Shu o‘rinda xorijlik olimning “How culture impacts translation” maqolasidagi “Tarjima amaliyoti, ko‘pincha, ravonlikka erishishga intiladi, bu esa madaniy farqlarning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin”, degan fikrlari ham o‘rinli bo‘lishi mumkin [1].

Tarjimon tarjima jarayonida adabiy hikoya mazmunini anglashi, chuqur tahlil va muhokamadan keyingina tarjimaga kirishishi kerak. Shundagina badiiy asarning haqiqiy tuzilishi saqlanib qoladi, uning dinamik, estetik, axloqiy, falsafiy va mantiqiy xarakteri bir bo‘g‘inni buzmasdan yetkaziladi.

Hikoya mazmunini yaxshi bilgan tarjimon asar epizodlarining xronologik tartibini saqlashi, birlikni buzmasligi kerak. Hikoyaning bir necha sahifalardan iborat asosiy qismining yaxlit tarjima qilinmagani, hikoya sujetining xronologik tartibining buzilishi yozuvchi uslubiga, asar mazmuniga, tarjimon erkinligiga jiddiy zarar yetkazadi. Tarjimon, imkon qadar, milliy-madaniy, etnolingvistik ko‘rsatkichlarni “soddalashtirishga” va ularni tarjima o‘quvchisining dunyoqarashiga yaqinlashtirishga harakat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. So‘nggi paytlarda antropotsentrik paradigma asosida lingvistik shaxs tushunchasiga qiziqish ortib bormoqda. Tilshunoslikda til shaxsi tushunchasi so‘zlovchi, kommunikator, uning nutqi, muloqot harakatlari kabi masalalar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

Tarjima qilingan variant asl nusxadagi kabi estetik vazifani bajarishi, bir xil effekt yaratishi uchun tarjimon lingvistik-etnik malakaga (butun tilning leksik-struktura tizimi) ega bo‘lgan shaxs bo‘lishi kerak. Lingvistik kompetensiya o‘zbek va ingliz tilini puxta egallashni talab qiladi, ya’ni, hikoya tarjimoni ma’lum xalqning nutqi va nutq namunalarini to‘liq to‘plagan, butun til materiallarini tushunadigan, tafakkur-psixologik faollik va madaniy-etnik tabiatiga ega bo‘lgan shaxs bo‘lishi kerak.

Tarjimashunoslik doirasidagi asarlarida ko‘p qo‘llaniladigan tarjimonning lingvistik-madaniy kompetensiyasi deb ataladigan atama mutaxassisning quyidagi qobiliyatlari va darajasiga ega bo‘lishi zarurligini bildiradi:

- ikki tilni teng darajada egallash;
- ikki yoki undan ortiq xalqlar madaniyatidan to‘liq xabardor bo‘lish;
- til bilimlarini to‘liq egallash;
- tillardagi idiomatik va obrazli vositalarning ma’no tuslarini chuqur anglash;
- asl matnning janr xarakterini ajrata bilish;
- tarjima tilini o‘rganayotgan shaxsning milliy-madaniy kelib chiqishi va kognitiv idrokini hisobga olish;
- tarjima strategiyasini belgilovchi tarjima standartlari, tarjima usullari, transformatsiya usullarini mukammal egallash;
- badiiy tarjimada ijodiy qobiliyatga ega bo‘lish.

Tarjimashunoslik nazariyotchisi V.N.Komissarov tarjimashunoslik sohasiga quyidagi talablarni qo‘yadi:

1) tarjimaning umumiy lingvistik asoslarini ochib berish va tavsiflash, ya'ni, til tizimining qaysi xususiyatlari va tildan foydalanishning qonuniyligi tarjima jarayonining asosi ekanligini aniqlash;

2) tarjimani lingvistik tadqiqotning bir turi deb bilish, uning boshqa lingvistik tadqiqot turlaridan farqini tushuna olish [2].

Shu o'rinda xorijlik olimlar ham lingvistik-madaniy kopetensiya masalasiga to'xtalib o'tishgan. Tarjimonlarning to'g'ri va madaniy jihatdan mos tarjimalar yaratishi uchun lingvistik-madaniy malaka zarurligini ta'kidlagan holda, bir nechta ilmiy maqolalarda ushbu konsepsiya o'rganib chiqilgan. Jumladan, Safiah Ali M.Asiri va Amal Abdelsattar Metvallining "Tilshunoslik va madaniy kompetensiyaning tarjima sifatiga ta'siri: tarjima muammolariga pedagogik tushunchalar" (2020) [3]. Ushbu maqolada lingvistik va madaniy kompetensiyaning tarjima sifatiga qanday ta'sir qilishi o'rganilib, mualliflar o'quvchilar madaniyatni yetarli darajada tushunmaganliklari tufayli, ko'pincha, grammatik va leksik xatolarga yo'l qo'yishini ta'kidlab, tarjima jarayonida madaniy ta'limni birlashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Natalya Malyuga va Aleksandr Kruglovning "Lingvo-madaniy kompetensiya tarjimonlarning madaniyatlararo ishbilarmonlik aloqalari sohasidagi faoliyatining asosi sifatida" (2018) mavzusida e'lon qilgan maqolasida madaniyatlararo biznes aloqalarida lingvomadaniy kompetensiyaning ahamiyati batafsil muhokama qilinadi. Mualliflarning ta'kidlashicha, madaniy jihatdan aniqlangan o'ziga xosliklarni tushunish tarjimonlarning samarali ishlashi uchun juda muhim, buning eng asosiy sabablaridan biri, bu ularga madaniy o'ziga xosliklarni batafsil o'rganish va aniq muloqotni ta'minlash imkonini berishini alohida urg'u bilan ta'kidlashadi [4]. Shular o'rinda biz ko'rib chiqqan ilmiy ishlar ichida Jun Eykmansning "Tarjimashunoslik va uni baholashda madaniy kompetensiya" mavzusida 2017-yil tarjimashunoslik yuzasidan e'lon qilingan ilmiy risolalar to'plamidagi fikrlari diqqatimizni tortdi. Unda ta'kidlanishicha, madaniy kompetensiya tarjima sifatining ajralmas qismi ekanligi, u tarjimonlarning madaniy kontekstlarda ma'noni to'g'ri yetkazish qobiliyatiga ta'sir qilishi muhim omil ekanligida, deb baholaydi [5].

Badiiy adabiyot, ayniqsa, murakkab janrdir. Bu janrda yozuvchining mahorati, har bir yozuvchining o'ziga xos uslubi, iste'dodi, yozuvchining mazmun va shakl berish qobiliyati kabi turli muammolar mavjud. Badiiy tarjimada asl nusxaning estetik qiymati katta. Badiiy tarjima psixologik jarayon orqali amalga oshiriladigan ijodiy san'at hamdir.

Badiiy tarjima badiiy asarlarni, ya'ni, asosiy vazifasi o'quvchiga badiiy-estetik ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lgan matnlarni tarjima qilishdir. Badiiy adabiyot tarjimonining ikkita vazifasi bor:

1) asl mazmun, sujet, asosiy asl muallif g'oyani, iloji boricha, to'liq saqlash;

2) tarjima tilining tabiiy qonuniyatlari va normalarini nazorat qilish.

Tarjima barcha tillarda uchraydigan lingvistik usuldir. Hech qanday shubha yo'qki, har qanday tilni kerak bo'lganda, tarjima qilish mumkin. Tarjima esa mazmunni yoki ma'noni to'g'ri yetkazishi kerak. Bu tarjima uchun birinchi til talabidir.

Badiiy asar sifatida hikoyalarning asosiy vazifasi estetik tarbiya berishdan iborat, ya'ni, bunday badiiy asarda so'zning estetik kuchi, so'z obrazliligi muhim ahamiyatga ega. Hikoyalarning badiiy tarjima badiiy ijodning bir shaklidir. Tarjimon o'z dunyoqarashi va badiiy-estetik didiga mos ravishda tarjima uchun tanlangan asarning badiiy haqiqatini shakl va mazmun birligini saqlagan holda yetkazadi. Bu yerda psixologik jarayon bevosita ijodiy jarayon bilan uyg'unlashadi. Badiiy tarjima estetikasi olimlar va tarjimonlar o'rtasida chuqur izlanish va muhokama mavzusidir. Badiiy tarjimaning asosiy maqsadi nafaqat asl ma'noni to'g'ri yetkazish, balki uning o'quvchiga estetik ta'sirini saqlab qolishdir. V.N.Komissarov adabiy tarjimada o'girilayotgan tilda asliyatga o'xshash badiiy-estetik ta'sir ko'rsatishga qodir asar yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Uning qayd etishicha, tarjimon nafaqat mazmunni, balki asarning badiiy shaklini, jumladan, uslubi, ritmi va obrazini ham yetkazishga intilishi kerak [6].

A.V.Fedorov tarjimonning asl tilni ham, ona tilini ham chuqur bilishi zarurligini ta'kidlaydi. U badiiy tarjima va asl matn bir-biridan farq qiladigan asar ekanligini, tarjimon tarjimaning estetik qiymatini saqlab qolish uchun madaniy va lingvistik farqlarni hisobga olishi muhim, deb hisoblaydi [7].

O.Sedakova o'zining "Tarjima san'ati. Bir necha mulohazalar" asarida tarjima san'ati tafsilotlariga to'xtalib o'tib, har safar tarjimon oldiga yangi va kutilmagan vazifalar qo'yilishini ta'kidlaydi. U umumiy ko'rsatmalar va tamoyillar yetarli bo'lmasligi mumkinligini, tarjimon har bir asarning o'ziga xosligini hisobga olishi kerakligini ham alohida ta'kidlaydi [8]. Olimlarning fikricha, badiiy tarjima estetikasi mazmunni to'g'ri yetkazish va asl nusxaning badiiy shaklini madaniy va lingvistik xususiyatlarni hisobga olgan holda, puxta takrorlash uyg'unligi orqali erishiladi.

Hikoyalar tarjimasi buyuk ijodiy ish bo‘lib, uning natijasi boshqa tilda yangi badiiy qadriyat yaratilishi va shu orqali tarjimonning ijodiy faoliyati baholanish mumkin. Bu jarayonda tarjimon asardagi lisoniy elementlarni yetkazish bilan bir qatorda, badiiy elementlarni ham mahorat bilan yetkazishi lozim.

Tahlil va natijalar. Hikoyalar tarjimonining asosiy xususiyati asl ijodkorlikni real tarzda yetkaza olishdir. Tarjimonning ijodiy yondashuvi, asosan, dunyoqarashiga bog‘liq. Tarjimon o‘z dunyoqarashiga ko‘ra, badiiy voqelikni o‘zi tanlagan asarlarida mazmun va shakl birligida, yaxlitlikdan umumiylikka bog‘-langan holda tasvirlaydi.

Tarjimonning dunyoqarashini alohida so‘z va iboralar, ko‘pincha, adabiy elementdan, ya’ni matnning to‘liq bo‘laklaridan izlab bo‘lmaydi. Aksariyat hollarda bu dunyoqarashning mazmuni tarjimonning asl nusxaga umumiy munosabati bilan belgilanadi. Tarjimonning dunyoqarashi asl tarjimaning tur va mazmun birligini hisobga olibgina qolmay, shu birlikda tarjimadagi milliy turga mos kelish masalasi ham hal qilinadi. Tarjimon o‘z qadriyatlari bilan o‘quvchi talabini qondiradi, o‘ziga xos badiiy asar rivojiga hissa qo‘shadi; adabiyot, til va madaniyatning xalqaro aloqa vositasiga aylanadi. Tarjima esa o‘quvchini asliyatga yaqinlashtiradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zga millat tilini o‘qishga, o‘rganishga yordam beradi.

Hikoyalar tarjimonining vazifasi muallifning dunyoqarashi, uslubi, uslubiy xarakterini anglash, bu dunyoqarash va uslubni ona tili vositalaridan foydalangan holda, imkon qadar, ifodali va go‘zal yetkazib bera olishdan iborat. Bu yerda tarjimon badiiy iste’dod bo‘yicha muallif bilan bir saviyada bo‘lishi, tarjimonning tasavvuri va iborasi shoir-yozuvchi bilan bir xil bo‘lishi kerak. Badiiy tarjima hikoya tarjimonidan jarayonda bir xil darajada fikrlash, asl go‘zallikni his qila olish, kerak bo‘lsa, asliyatga teng keladigan yoki undan-da maftunkorroq o‘ziga xos lug‘at boyligi va fikr teranligiga ega bo‘lishni talab qiladi. Tarjimonlik iste’dodi qanchalik baland bo‘lsa, hikoya tarjimasining badiiy mazmuni, go‘zal tili shunchalik aniqroq ko‘zga tashlanadi.

Tarjimani o‘qib, katta taassurot olgan o‘quvchi, birinchidan, hikoya muallifiga o‘z minnatdorchiligini bildirsa, ikkinchidan, tarjimonga ham qoyil qoladi. Muallif va tarjimon bir-birini ko‘rmasligi yoki tanimasligi mumkin. Biroq tarjimada asar muallifiga bo‘lgan muhabbatini ishtiyoq bilan namoyon etgan tarjimon boshqa xalqlar adabiyoti oldidagi ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy burchini ado etadi.

Tarjimonning lingvomadaniy kompetensiyasiga olimlar tomonidan berilgan ta’rif va fikrlarga e’tiborimizni qaratsak. L.P.Tarnaeva lingvomadaniy kompetensiyani tarjimonning madaniyatlararo ishbilarmonlik o‘zaro ta’siri sharoitida madaniy o‘ziga xos ma’nolarni yetkazish uchun bilim, ko‘nikma, qobiliyat va qobiliyatlar to‘plami sifatida belgilaydi [9]. I.B.Hemelyanova esa tarjimonning lingvistik va madaniy kompetensiyasini tarjima jarayonida tilning madaniy jihatdan shartlangan elementlarini adekvat idrok etish va takrorlash imkonini beradigan asosiy bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi deb hisoblaydi [10]. V.N. Komissarovning ta’kidlashicha, tarjimonning lingvomadaniy kompetensiyasi suhbat ishtirokchilarining og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan kommunikativ xatti-harakatlarida mavjud bo‘lgan madaniy ma‘lumotlarni olish va uzatish uchun zarur bo‘lgan bilim, nutq qobiliyatlari va kommunikativ qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi, degan fikrni ilgari suradi [11].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, tarjimonning lingvomadaniy kompetensiyasi – bu lingvistik bilimlar va madaniy ongning integratsiyalashuvi, madaniy kontekstlarni hisobga olgan holda, asl matnning ma’nosini to‘g‘ri va adekvat yetkazishni ta‘minlaydi. Shuningdek, tarjima jarayonida manba va maqsad tillarning ham lingvistik, ham madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda, madaniy jihatdan o‘ziga xos ma’nolarni samarali yetkazish qobiliyatidir. Hikoyalar tarjimasida asosiy va muhim jihat nafaqat lingvistik bilimdonlik, balki madaniyatdan xabardor bo‘lgan holda, hikoyaning mazmun mohiyatini to‘liq ochib berishiga olib keladi.

Foydalanigan adbiyotlar ro‘yxati:

[1]. https://traducendo.net/en/how-culture-impacts-translation/?utm_source

[2]. Комиссаров В.Н. Слово о переводе. М., Международные отношения, 1973, 35–36 с.

[3]. Safiah A.M., Asiri A.A.M. The Impact of Linguistic and Cultural Competence on Translation Quality: Pedagogical Insights into Translation//ISSN 1798-4769. Journal of Language Teaching and Research, Vol. 11, №. 3, pp. 509–520, May 2020. DOI: http://dx.doi.org/10.17507/jltr.1103.22

[4]. Malyuga E.N., Krouglov A., Tomalin B. Linguo-cultural competence as a cornerstone of translators' performance in the domain of intercultural business communication//X Linguae European Scientific Language Journal, 2018-11-02-46, pp. 566–582. DOI: 10.18355/XL.2018.11.02.46

[5]. Eyckmans J. Cultural Competence in Translation Studies and its Assessment //Ghent University https://api.semanticscholar.org/CorpusID:113403902

[6]. Комиссаров, В.Н. Теория перевода [текст]. Москва, “Высшая школа”, 1990, 228 с.

[7]. Федоров А.В. Введение в теорию перевода. М., “Международные отношения”, 1958, с. 7.

[8]. Седакова О. Искусство перевода. Несколько замечаний. Лекция, прочитанная в Британском музее. https://www.olgasedakova.com/translations

[9]. Тарнаева Л.П. Лингвокультурологическая компетентность переводчика в сфере делового общения. Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С.Пушкина, 2010, с. 92–98.

[10]. Емельянова Я.Б. Лингвострановедческая компетенция переводчика: теория и практика. Монография, Нижний Новгород, 2010, 202 с.

[11]. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Учебное пособие, М., ЭТС, 2001, 424 с.

Tuxtasinova Nigina Bashirovna (O‘zbekiston Milliy universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; e-mail:zolushkax@mail.ru)

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MUQADDAS QADAMJOLAR, ZIYORATGOHLAR VA MADANIY YODGORLIKLAR NOMLARI KATALOGINI TUZISH TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xorij olimlari tomonidan yaratilgan agiografik, islomiy atamalar, diniy istilohlar kabi izohli va tarjima lug‘atlari tadqiq etildi. Terminologik lug‘atlar ishlab chiqishda faqatgina lingvistik bilimlarning o‘zi yetarli emas, ekstralingvistik bilimlar, qomusiy bilimlar birlamchi omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *agioterminlar, diniy terminlar, islomiy atamalar, agiologiya, lug‘at, tamoyil.*

ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ КАТАЛОГА НАЗВАНИЙ СВЯТЫНЬ, ПАЛОМНИЧЕСТВА И ПАМЯТНИКОВ КУЛЬТУРЫ НА ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье исследуются толковые и переводные словари агиографических, исламских терминов, религиозных терминов, созданные зарубежными учеными. При разработке терминологических словарей одних лишь лингвистических знаний недостаточно, экстралингвистические знания, энциклопедические знания являются основным фактором.*

Ключевые слова: *агиотермины, религиозные термины, исламские термины, агиология, словарь, принцип.*

PRINCIPLES FOR CREATING A CATALOG OF NAMES OF SAINTS, PILGRIMAGES AND CULTURAL MONUMENTS IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. *This article examines the explanatory and translated dictionaries of agiographic, Islamic terms, religious terms created by foreign scientists. In the development of terminological dictionaries, linguistic knowledge alone is not enough, extralinguistic knowledge, encyclopedic knowledge is the primary factor.*

Key words: *hagiology, religious terms, Islamic terms, dictionary, principle.*

Mavzuning dolzarbligi. Umumjahon globalizatsiya gibrid madaniyatlarning paydo bo‘lishi, milliy an’analarning qisman o‘zgarishi, millatlararo hamkorlikning kuchayishi natijasida tillimizga turli xil atamalar, o‘zlashmalar kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa lug‘atshunoslar oldiga zamonaviy lug‘atlar avlodini yaratish, o‘zlashmalarni kiritish va yangilash vazifasini qo‘ymoqda. Bu borada M.Umarxo‘jayevning ta’kidini o‘rinli deb hisoblaymiz: «Lug‘at doim zamonga hamnafas tarzda mukammallashib borishi zarur. Biroq lug‘atlar qanchalik zamonaviy bo‘lmasin, davrdan ma’lum darajada orqaga qolib, so‘zlar hamda ular ifodalagan narsa va hodisalar o‘rtasidagi u yoki bu hodisalar o‘rtasidagi u yoki bu o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangicha munosabatlarni talab qiladi» [10:28-b.].

Zero, har qanday milliy tilning asosiy so‘z boyligi shu tilning tarixan rivojlanishi hamda muayyan lug‘atini yaratish chog‘idagi turg‘un holatini lisoniy tizim va nutqiy faoliyat birligida ifoda qiluvchi katta hajmli filologik lug‘atlar ulkan madaniy ahamiyatga molik ishlar sifatida baholashga loyiqdir. Bugungi kunda tadqiqotlar fanlararo uyg‘unlikda olib borilmoqda, chunki har bir yo‘nalish o‘zaro fanlar va sohalararo aloqadorlik kasb etmoqda. Tarjimashunoslik, badiiy tarjima, adabiyotshunoslik fanlari ham bevosita leksikografiya sohasi bilan chambarchas bog‘liq. Binobarin, leksikografiyaning dolzarb amaliy vazifalaridan biri bu professional tarjimonlar va tarjima bilan kundalik hayotida doimo to‘qnashadigan ko‘p sonli mutaxassislar uchun tarjima lug‘atlarini yetkazib berishdir.

Zamonaviy ikki tilli tarjima lug‘atlari tegishli adabiy tillarning lug‘at tarkibini har taraflama boyitib beradi. Jumladan, badiiy hamda ilmiy ommabop adabiyotlarda keng qo‘llaniladigan ilm-fan texnika, sportning va boshqa sohalarga oid ko‘p sonli atamalar, terminlar va boshqa madaniyat vakillarining milliyligiga dahldor leksemalarni tarjima lug‘atini yaratish doimo dolzarblik kasb etgan.

Ishning maqsadi. Tadqiqot doirasida mazkur yo‘nalishlarda olib borilgan ishlar o‘rganildi va shu narsaga amin bo‘lindiki, xorij olimlari agioterminlar, diniy terminlar, islomiy atamalar kabi bir qancha lug‘atlarning zamonaviy avlodini yaratib ulgurishgan hamda mazkur sohaning nazariy masalalariga bag‘ish-